



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 24-iyun

N° 2144

Ayrim sudyalarni lavozimidan ozod etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 79-moddasi va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunining 7, 17-moddalariga muvofiq:

Roziqov Baxtiyor Kobilovich – yozma arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Toshkent viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Yo'ldosheva Mavsuma Sharofovna – yozma arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Xorazm viloyat sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Arapov Raxmatjon Ergashovich – yozma arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Farg'ona viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Qo'shitepa tuman sudining raisi lavozimidan ozod etilsin;

Muminov Sardorbek Xolmurodovich – Sudyalar odobi kodeksi talablarini buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 10-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Andijon viloyati Andijon tumanlararo ma'muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Xalikov Xurshed Urokovich – Sudyalar odobi kodeksi talablarini buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 10-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudining raisi lavozimidan ozod etilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov